

УДК:616 462:615.225.1–08

QANDLI DIABET 2-TURI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA ANTIGIPERTENZIV TERAPIYA QO‘LLANILISHINI BAHOLASH

Shagazatova B.X., Mirxaydarova F.S., Adilova N.Sh., Salieva Sh.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi,

Andijon davlat tibbiyot instituti

РЕЗЮМЕ

Цель исследования. Оценка применения антигипертензивной терапии у больных сахарным диабетом 2 типа.

Материал и методы. У 711 пациентов старше 30 лет диагностирован сахарный диабет 2 типа, из них 54% – женщины и 46% – мужчины.

Результаты. Данные об артериальном давлении были собраны у 711 пациентов с сахарным диабетом 2 типа, участвовавших в исследовании. Из них 127(18%) не имели в анамнезе артериальной гипертензии. У 573(81%) больных в анамнезе была артериальная гипертензия. Из них 64 (11%) в настоящее время достигли целевых значений артериального давления. У 497 пациентов (87 %) не были достигнуты целевые показатели артериального давления. У 12(2%) пациентов в настоящее время не имеются данные об артериальном давлении.

Ключевые слова: сахарный диабет, артериальная гипертензия, антигипертензивная терапия.

SUMMARY

Objective. To assess the use of antihypertensive therapy in patients with type 2 diabetes mellitus.

Materials and methods. Type 2 diabetes mellitus was diagnosed in 711 patients over the age of 30, 54% of them were women and 46% were men.

Results. Blood pressure data were collected from 711 patients with type 2 diabetes mellitus who participated in the study. Of these, 127(18%) had no history of hypertension. 573(81%) patients had a history of hypertension. Of these, 64 (11%) currently achieved target blood pressure values.

The number of patients who did not achieve target blood pressure values was 497(87%). Currently, data on blood pressure are not available for 12 patients (2%).

Keywords: type 2 diabetes mellitus, arterial hypertension, antihypertensive therapy.

Qandli diabet global ijtimoiy noinfekcion epidemiya bo‘lib, tobora ortib borayotgan, nogironlik va erta o‘limga olib keluvchi kasallik hisoblanadi [7]. Xalqaro diabetologlar assotsiatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 20 yoshdan 79 yoshgacha bo‘lgan insonlar orasida qandli diabetning uchrashi 537 millionga etgan bo‘lsa, 2045 yilda bu ko‘rsatkichni 783 millionga etishini taxmin qilishmoqda [1,10].

Arterial gipertenziya va qandli diabet xozirgi kunda Er yuzidagi eng dolzarb muammolardan biridir [2]. Jaxon hamjamiyatida ushbu kasalliklar bilan kasallanish tobora ortib bormoqda [5]. Bundan tashqari, qandli diabet va arterial gipertenziya o‘zaro bog‘liq patologiya hisoblanib, kuchli additiv shikastlovchi ta’sirga ega, tez asoratlar keltirib chiqaruvchi, bir vaqtning o‘zida bir qancha, yurak, buyraklar, bosh miya qon tomirlari va to‘r pardaga ziyon etkazishi bilan ham xavfli sanaladi [4]. Natijasi sifatida esa miokard infarkti, insult, yurak etishmovchiligi va boshqa kasalliklar yuzaga keladi. Ushbu bemorlarning 80% yurak-qontomir kasalliklari asoratidan vafot etadi: 65% yurakning orttirilgan patologiyalari, 15% esa bosh miya qon aylanishi buzilishlari kabi asoratlar [6, 8]. Arterial gipertenziyali bemorlar orasida qandli diabetning tarqalishi arterial gipertenziyasi yo‘q bemorlarga nisbatan 2-2,5 barobar ko‘proqdir [3]. Arterial gipertenziyaning rivojlanishi,

qandli diabet bor- yo‘qligiga, irqiga, yoshiga, semizlik borligiga va metabolik buzilishlarga ko‘ra ortib boradi. Bunga ko‘ra qandli diabetning 2-turi bilan kasallangan bemorlarning 80% yuqori qon bosimi ko‘rsatkichlariga egadirlar [9].

MAQOLANING MAQSADI

Qandli diabet 2-turi bilan kasallangan bemorlarda antigipertenziv terapiya qo‘llanilishini baholash.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Ushbu kesishgan, observatsion va ko‘pmarkazli tadqiqotga 30 yoshdan katta qandli diabet 2-tur tashhisi qo‘yilgan 711 nafar bemorlar, ulardan 54% ayollar va 46% erkaklar jalb qilingan.

Tadqiqot 2024 yil mart oyidan 2024 yil avgust oyigacha Toshkent shahar, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Xorazm, Jizzax viloyatlari va Nukus shahar oilaviy poliklinikalarida olib borildi. Tadqiqot 12 hafta davomida pilot proekt sifatida (303 nafar bemor) Toshkent shahrida, 12 hafta esa viloyatlarda (408 nafar bemor) olib borildi. Erkaklarning o‘rtacha yoshi $57,04 \pm 1,45$, ayollarniki $59,4 \pm 1,22$ yoshga teng bo‘ldi. Qandli diabetning davomiyligi o‘rta hisobda $7,56 \pm 0,56$ yilni tashkil etdi. Yurak-qontomir kasalliklarini o‘rtacha davomiyligi 11 yilga teng bo‘ldi. Tadqiqotda bir tomondan bemorlarning demografik va yondosh kasalliklar uchrashi bo‘yicha tavsiflansa, ikkinchi tomondan yog‘ va uglevod

almashinuvi ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil olib borildi. Ushbu maqolada esa tadqiqotdagi bemorlarda qo'llanilgan antigipertenziv terapiya qo'llanilishi va samaradorligi bo'yicha tahlil olib borilgan.


Olingan natijalar tahlili uchun Statistica (StatSoft, 6,1 – 8,0 versiyasi, AQSh) dasturiy paketidan foydalangan holda olib borilgan. Tahlil shuningdek Excel 2021 dasturida, Attestat 15.0.3 statistik tahlil nadstroykasi orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda ma'lumotlarning normal taqsimotga mosligini tekshirish asosida gipotezalarni tekshirish uchun turli statistik mezonlar qo'llanildi – ham parametrik, ham noparametrik mezonlar. Qo'llanilgan testlar quyidagilardan iborat: Styudent testi, Kraskel-Uollis testi, χ^2 (xi-kvadrat) testi, Fisher testi. Gipotezani qabul qilishda ishonch darajasi tibbiy statistik tadqiqot uchun yetarlicha yuqori bo'lib, 0,0001 ni tashkil etdi. Agar gipoteza qabul qilinmagan bo'lsa, xolis xulosa sifatida, hatto 0,01 ishonch darajasida ham gipotezani qabul qilish mumkinligi ko'rsatildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNI MUHOKAMA QILISH

Yurak-qon tomir kasalliklari orasida eng keng tarqalgan qon bosimi ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qatnashgan 711 nafar bemordan 700 (98,4%) nafarida arterial qon bosimi to'g'risida ma'lumotlar yig'ilgan. 700 nafar bemordan 127 (18%) nafarida anamnezida arterial gipertenziya kuzatilmagan (arterial qon bosimi 140/90 mm s/u-gacha), 573 (82%) nafarning anamnezida arterial gipertenziya kuzatilgan (arterial qon bosimi 140/90 mm s/u va yuqori). Bemorlarni arterial qon bosimi shifokor qabuliga kamida 2 marotaba tashrif buyurganida o'lchanib, sistolik arterial qon bosimi 140 mm s/u, diastolik arterial qon bosimi 90 mm s/u ga teng va yuqori bo'lganida arterial gipertenziya tashhisi qo'yilgan. Anamnezida arterial gipertenziya kuzatilmagan 127 nafar bemordan 124 (97,7%) nafarida hozirda ham arterial gipertenziya yo'q, lekin 3 (2,3%) nafar bemorda arterial gipertenziya hozirda aniqlangan.

Anamnezida arterial gipertenziya kuzatilgan 573 nafar bemordan 64 (11%) nafarida hozirda arterial qon bosimining maqsadli ko'rsatkichlariga erishilgan. Hozirda ham arterial qon bosimini maqsadli ko'rsatkichlariga erishilmagan bemorlar soni esa 497 (86%) nafar bo'lgan. 12 (2%) nafar bemorda hozirgi vaqtidagi arterial qon bosimi to'g'risida ma'lumotlar yo'q (1-rasm).



1-rasm. Anamnezidagi AG va hozirgi vaqtidagi AG bo'yicha ma'lumotlar.

Arterial qon bosimini maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha milliy klinik bayonnomalar"ida quyidagicha UzRSSV 2023 yilgi "Yurak-qon tomir kasalliklari belgilangan (1-jadval).


1- jadval

Yoshiga va hamroh kasalliklarga qarab arterial qon bosimining maqsadli qiymatlari

Yoshi	SAB(mm s/u)maqsadli qiymatlari					DAB (mm s/u) maqsadli qiymatlari
	AG	+QD	+SBK	+YuIK	+insult	
18–64 yosh	≤130 yaxshi qabul qilganda	≤130 yaxshi qabul qilganda	≤130 yaxshi qabul qilganda	≤130 yaxshi qabul qilganda	≤130 yaxshi qabul qilganda	70–79
65–79 yosh	<120 past emas ≤130 yaxshi qabul qilganda	<120 past emas ≤130 yaxshi qabul qilganda	<120 past emas ≤130 yaxshi qabul qilganda	<120 past emas ≤130 yaxshi qabul qilganda	<120 past emas ≤130 yaxshi qabul qilganda	70–79
≥80yosh	<120 past emas<140 dan	<120 past emas<140 dan	<120 past emas<140 dan	<120 past emas<140 dan	<120 past emas<140 dan	70–79
DAB (mm s/u) maqsadli qiymatlari	70–79	70–79	70–79	70–79	70–79	

Tekshiruvimizda 497 nafar anamnezida arterial gipertenziya bo'lgan va arterial qon bosimining maqsadli ko'rsatkichlariga erishilmagan bemorlarni yoshi bo'yicha taqsimlanganda, bu bemorlarning asosiy qismi, ya'ni


331 nafari 18-64 yoshdagi ma'lum bo'ldi. 160 nafar bemorlar 65-79 yoshgacha va 6 nafar bemor 80 yoshdan yuqoriligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Anamnezida AG bo'lgan, hozirda AQB maqsadli ko'rsatkichlarga erishilmagan bemorlarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi.

Arterial gipertenziyani davolashda qo'llanilgan gipotenziv vositalarini tahlil qilinganida, 711 nafar bemordan 491 (67%) nafari gipotenziv dori vositalarini

qabul qiladi, 220 (33%) nafari esa qabul qilmaydi (3-rasm).




3- rasm. Gipotenziv dori vositalari tahlili.

Arterial qon bosimining maqsadli ko'rsatkichlariga erishilmagan bemorlarda gipotenziv dori vositalari tahlil qilinganda quyidagi natijalar aniqlandi:

18- 64 yoshgacha bo'lgan bemorlarning 80% gipotenziv dorilar qabul qiladi, 20% qabul qilmaydi;

65-79 yoshgacha bo'lgan guruhda esa 89% qabul qiladi, 11% qabul qilmaydi;

80 yosh va undan yuqori bo'lgan guruhda barcha bemorlar (100%) gipotenziv dori vositalari qabul qiladi (4-rasm).



4-rasm. Anamnezida AG bo'lgan, hozirda AQB maqsadli ko'rsatkichlarga erishilmagan bemorlarda gipotenziv dorilarning tahlili.

Anamnezida arterial gipertenziya kuzatilmagan va hozirda ham arterial gipertenziya bo'lmagan 124 nafar bemorda gipotenziv dori vositalari qabul qilishi bo'yicha tahlil olib borilganda, 118 (95%) nafari gipotenziv dori vositalar qabul qilmasligi, lekin 6 (5%) nafari hozirda bu guruh dori vositalarini qabul qilishi aniqlandi.


Anamnezida arterial gipertenziya kuzatilmagan, lekin hozirda arterial gipertenziya yuzaga kelgan 3 nafar bemorlardan 2 (67%) nafari dori qabul qilmasligi, 1 (33%) nafari qabul qilishi to'g'risida ma'lumot aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Anamnezida AG kuzatilmagan bemorlarda gipotenziv dori vositalar tahlili.

Anamnezida arterial gipertenziya bo'lgan, hozirda ham arterial gipertenziyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishilmagan bemorlarda gipotenziv dori vositalarini har bir guruhi tahlil qilinganida, quyidagi natijalar olindi: 18-64 yoshgacha bo'lgan bemorlar guruhida 111 nafar bemor bo'lib, ularning ko'proq qismini, ya'ni 11 nafarini angiotenzinga aylanuvchi ferment ingibitorlari va betta- adrenoblokatorlar kombinatsiyasi qo'llanilgan bemorlar tashkil etgan. 65-79 yosh oraligidagi bemorlar


76 nafarni tashkil etib, ular orasida eng ko'p qo'llanilgan dori vositalari bu diuretiklar, sartanlar, betta- blokatorlar va kalsiy antagonistlardan iborat 4 komponentli terapiyadir. 80 yosh va undan yuqori guruhdagi bemorlar 2 nafarni tashkil etib, bu bemorlarning biri betta-blokatorlar, ikkinchisi esa diuretiklar, sartanlar va kalsiy antagonistlardan iborat 3 komponentli gipotenziv terapiyadagi bemorlardir (6-rasm).



6-rasm. Anamnezida AG bo'lgan, hozirda AQB maqsadli ko'rsatkichlarga erishilmagan bemorlarda gipotenziv dorilarning har bir guruhlarini bo'yicha tahlili.

Anamnezida arterial gipertenziya bo'lgan, hozirda esa maqsadli ko'rsatkichlarga erishilgan bemorlarda gipotenziv dori vositalarini har bir guruhi bo'yicha tahlil qilinganda, 18-64 yosh oralig'idagi bemorlar soni 188 nafarni tashkil etib, bu bemorlar asosan angiotenzinga aylanuvchi ferment ingibitorlarini qabul qilgan, 65-79 yosh oralig'idagi bemorlar asosan sartanlar va betta-

blokatorlar kombinatsiyasini qo'llagan bemorlardan iborat bo'lgan. 80 yosh va undan yuqori bo'lgan guruhda 4 bemor bo'lib, ular angiotenzinga aylanuvchi ferment ingibitorlari, sartanlar va kalsiy antagonistlardan iborat 2 komponentli hamda sartanlar, betta- blokatorlar, diuretiklardan iborat 3 komponentli gipotenziv dorilarni qabul qilgan (7-rasm).



7-rasm. Anamnezida AG bo'lgan, hozirda AQB maqsadli ko'rsatkichlarga erishilgan bemorlarda gipotenziv dorilarning har bir guruhlarini bo'yicha tahlili.

XULOSALAR:

1. Anamnezida arterial gipertenziya bo'lgan, hozirda arterial qon bosimining maqsadli ko'rsatkichlariga erishilmagan 497 nafar bemorlarning 67% 18-64 yoshda, 32% bemorlar 65-79 yoshda va 1% bemor 80 yoshdan yuqoriligi aniqlandi.

2. Ushbu bemorlarda gipotenziv dori vositalari tahlil qilinganda, 18-64 yoshgacha bo'lgan bemorlarning 80% gipotenziv dorilar qabul qiladi, 20% qabul qilmaydi. 65-79 yoshgacha bo'lgan guruhda esa 89% qabul qiladi, 11% qabul qilmaydi. 80 yoshdan katta bemorlarning esa barchasi qabul qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Галяви Р.А., Михопарова О.Ю., Ощепкова О.Б., Фролова Э.Б. Артериальная гипертензия и сахарный диабет // Вестник современной клинической медицины // – 2014 (7):1. – С.78-84.
2. Дедов И.И., Мокрышева Н.Г., Мельниченко Г.А. и др. Клинические рекомендации // Российская ассоциация эндокринологов. – 2020. – С.43.
3. Жито А.В., Беленков Ю.Н., Привалова Е.В. и др. Структурные нарушения микроциркуляции у пациентов с ИБС в сочетании с СД 2-го типа и без него // Матер. XXII Научно-практической конференции «Российская наука в современном мире».

- 2019.
4. Жито А.В., Юсупова А.О., Привалова Е.В., и др. Маркеры эндотелиальной дисфункции: Е-селектин, эндотелин-1 и фактор фон Виллебранда у пациентов с ишемической болезнью сердца, в том числе, в сочетании с сахарным диабетом 2 типа // Рациональная Фармакотерапия в Кардиологии. – 2019. – Т. 15, № 6. – С. 892-899.
 5. Скибицкий В.В., Киселев А.А., Фендрикова А.В. Эффективность хронофармакотерапии в зависимости от солечувствительности пациентов с артериальной гипертензией и сахарным диабетом 2 типа // Рациональная фармакотерапия в кардиологии. – 2018;14(6). Стр.846-851.
 6. Фендрикова А.В., Гутова С.Р. и др. Особенности суточного профиля артериального давления, показателей артериальной жесткости и структурно-функционального состояния миокарда левого желудочка у больных артериальной гипертензией с нарушениями углеводного обмена // Системный гипертензии // -2018. Том 15. №3. Стр.44-50.
 7. Goodall R, Alazawi A, Hughes W, Bravis V, Salciccioli JD, Marshall DC, Crowley C, Shalhoub J. Trends in type 2 diabetes mellitus disease burden in European Union countries between 1990 and 2019. Sci Rep. 2021;11(1):15356–15356.
 8. Gregg EW, Cheng YJ, Srinivasan M, Lin J, Geiss LS, Albright AL, Imperatore G. Trends in cause specific mortality among adults with and without diagnosed diabetes in the USA: an epidemiological analysis of linked national survey and vital statistics data. Lancet (London, England). 2018;391(10138):2430–40.
 9. Vetrone LM, Zaccardi F, Webb DR, Seidu S, Gholap NN, Pitocco D, Davies MJ, Khunti K. Cardiovascular and mortality events in type 2 diabetes cardiovascular outcomes trials: a systematic review with trend analysis. Acta Diabetol. 2019;56(3):331–9.
 10. Yun JS, Ko Sh. Current trends in epidemiology of cardiovascular disease and cardiovascular risk management in type 2 diabetes. Metabolism. 2021;123:154838.

ТРАВМАТОЛОГИЯ

УДК: 616.728-2-0001.7-089 (575.173)

СОВРЕМЕННОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ПРИЧИН РАЗВИТИЯ, ПРОФИЛАКТИКИ И ПРИНЦИПОВ ЛЕЧЕНИЯ КОКСАРТРОЗА ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА (ОБЗОР)

Юсупова И.А.¹, Джураев А.М.², Машарипов К.¹

¹Ургенческий филиал Ташкентской медицинской академии

²Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр травматологии и ортопедии

XULOSA

Taqdim etilgan maqola zamonaviy adabiyotlar sharhi bo'lib va koksartrozga olib keluvchi tug'ma va orttirilgan kasalliklarining hozirgi holatini aks ettiradi. Maqolada ko'rsatilgan kasalliklarning etiologiyasi va davolash tamoyillari bo'yicha, zamonaviy qarashlarni hisobga olgan holda guruhlariga bo'lingan. Deyarli barcha kasalliklarning dastlabki bosqichlarida profilaktika va o'z vaqtida davolashga alohida ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlab otilgan. Koksartroz kelib chiqishining oldini olishda har xil, erta bajariladigan xirurgik operatsiyalar turlari haqida ham ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: chanoq son bo'g'ini, Legg-Calve-Perthes kasalligi, koksartroz.

Коксартроз – это дегенеративное заболевание тазобедренного сустава, приводящее к его разрушению

SUMMARY

This review article presents the current understanding of congenital and acquired diseases of the musculoskeletal system that ultimately lead to the development of coxarthrosis. The diseases discussed are divided into groups according to modern perspectives on etiology and treatment principles. The authors emphasize that, for nearly all such diseases, early prevention and timely treatment at initial stages are especially important. This also applies to surgical interventions and their role in preventing the progression of coxarthrosis.

Keywords: hip joint, Legg-Calve-Perthes disease, coxarthrosis.

и имеющее хронический характер течения.

Болезнь характеризуется нарушением анато-